



Shukur Xolmirzayev hikoyalarida badiiy tasvir va ifoda vositalari

O'rolova Mohichehra

Termiz davlat universiteti 3-bosqich talabasi

mohichehauralova@gmail.com

Ilmiy rahbar: Normat Yo'ldoshev

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12607504>

ARTICLE INFO

Received: 27th June 2024

Accepted: 28th June 2024

Published: 01st July 2024

KEYWORDS

Shukur Xolmirzayev, yozuvchi, badiiy tasvir va ifoda vositalari, hikoya, asar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida, yozuvchi va shoirlar tomonidan keng qo'llaniladigan badiiy tasvir va ifoda vositalari haqida fikr yuritilib, ularning asarlarga beradigan qiymati xususida so'z boradi. Hamda, yozuvchi Shukur Xolmirzayev hikoyalarida qo'llanilgan badiiy tasvir va ifoda vositalarining ahamiyati muhokama qilinadi.

KIRISH

Shukur Xolmirzayev o'zining ixcham va ma'nodor hikoyalari bilan o'zbek nasriga kirib kelgan ijodkordir. Muallif asarlarining g'oyalari bir-birini to'ldirib boradi, tasvirlangan qahramonlar harakatidan, tabiatidan chiqarilgan xulosalar bir-birini yanada boyitadi, milliy o'zligimizning turli qirralarini alohida xarakterlar orqali tasvirlab, xalq qiyofasidagi yaxlit qiyofaning turli jihatlarini ochib beradi. Yozuvchi asarlari tasvirida tirikchilik qiyinchiliklari bilangina o'ralashib qolmaydi, ma'naviyat masalalariga ham alohida e'tiborni qaratadi. Zamon talotumlari ma'naviyatimiz mustahkamligi va mustaqilligida jiddiy salbiy iz qoldirayotganiga ishora qiladi.

Yozuvchi va shoirlar uchun, asarlarining tili, badiiyati, qahramon va voqealarning jonli tasvirini ta'minlab beruvchi manba tasviriy vositalar hisoblanadi. Ya'ni badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni umumshtirib, adabiyotshunosligimizda "badiiy tasvir va ifoda vositalari" deb ataymiz. Tasviriy vositalar asar tilini belgilovchi xususiyat bo'lmish, obrazlilik(tasviriylik) va emotsionallikni kuchaytiruvchi unsurlar bo'lib, asarning jonliligi va badiiyatini belgilovchi omillardir. Adabiyotshunosligimizda ushbu tushunchalar "stilistik figuralar", "poetik vositalar" yoki "sintaktik figura"lar nomi bilan ataladi.

Yozuvchi Shukur Xolmirzayev hikoyalarida badiiy tasvir vositalari hisoblangan ko'chim va o'xshatishlardan o'rinli foydalanilgan. Adibning "Omon ovchining o'limi" hikoyasi qahramoni omon ovchi tirik mavjudotlarni o'ldirishga juda mukkasidan ketgan kishi edi. Yozuvchi ta'riflaganidek: "Mabodo ovdan quruq qaytsa, bamisoli otasi o'lganidek aza tutardi..." Muallif bu yerda o'xshatishdan o'rinli foydalangan. Ovchining ruhiyati ushbu jumlar orqali ifodalab, aniq va qisqa uslubda kitobxonning taffakkuriga nima demoqchiligini quyib quyayabdi.

Yozuvchi bundan tashqari ham hikoyada “tekkanga tegib, tegmaganga kesak otadigan bekorchilar”, “oyoq tirab turib oldi”, “anavi yovvoyilar qirilib ketsa(ko’chim), “qon tutadi”, “ko’z tegadi” kabi o’xshatish, ko’chim, ibora, davr, til va hudud koloritlaridan ajoyib tarzda foydalanadi. Bu esa o’z navbatida asarlarining qisqa va mazmundor bo’lishligini ta’minlaydi. Bundan tashqari hikoyada tabiatdagi barcha narsalar o’z o’rniga ega qilib yozilgan. Oxirgi voqealarning nima bo’lishi esa barchamizga saboqdir. O’quvchilar bu asarni o’qib, tabiatdagi barcha jonivorlarga achinadi. O’qigan kishi tabiatda mavjud hodisalarga befarq bo’lmaslikni tushunadi. Shu orqali yozuvchimiz ovchining qanday o’lim topishi misolida har bir harakatimizning javobi borligini eslatib qo’yadi. Kitobxon, bu asarni o’qib, oilada qanday muhit yaratish kerakligi, farzandlarni qanday tarbiyalashni, o’z yaqinlariga mehr- e’tibordan boshqa narsa kerak emasligini, ajdodlarimiz ishlatib kelgan “gunoh”, “qon tutadi” kabi tushunchalarning qanchalik ahamiyatli ekanligini anglatuvchi ma’naviy g’oyalarni o’ziga singdiradi.

Muallif “Qadimda bo’lgan ekan” hikoyasida O’sar, Maqsad momo va Hojar obrazlari orqali qishloq muhiti, insonlar xarakterini o’z holicha gavdalandiradi va ushbu asarda ham tasviriy vositalardan o’rinli foydalanadi. Ushbu hikoyada maqol va iboralar hamda, shevaga oid so’zlardan o’rinli foydalanilgan. Jumladan, “og’zingdan chiqib, yoqangga yopishsin”, “yana nashani urib avariya qilasiz”, “shilq etib kigizga o’tirdi”, “juripmiz”, “ko’zlari qonsirab tikildi” kabi. Hikoyada Maqsad momoning o’g’li urushda vafot etgach, kelini ikki bolasini tashlab erga tegib ketadi. Momo esa beva holidi ularni voyaga yetkazadi. Hikoyada, momoga a’ziyat yetkazmaydigan, garchi shunday bo’lsa ham uning qiliqlaridan or qiluvchi kelin, momo Ularni qiynalib voyaga yetkazgani uchun momosiga achinadigan, xotinini pushaymon qildirish uchun, momosini qariyalar uyiga eltmochi bo’lgan, hayotning qiyinchiliklari va mashaqqatlaridan asabiy bo’lib qolgan nevara obrazi mifologik uslubda yoritib berilgan. Asarda O’sarning momosini tut daraxti tagiga tashlab ketishi orqali, qadimda mavjud bo’lgan mifologik rivoyatdan nusxa olinganini ko’rishimiz mumkin. Hikoyada qiyinchiliklarda ham irodasi mustahkam, sodda qishloq odamlari yoritib berilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, badiiy tasvir va ifoda vositalari ijodkorning muayyan badiiy-estetik maqsadga og’ishi natijasida yuzaga keladi, ular tasvirning jonli va to’loqonli bo’lishiga, hamda, ifodaviylikning kuchayishiga xizmat qiladi. Yozuvchi Shukur Xolmirzayev ham hikoyalarida davr, hudud va muhit koloritini yaratish uchun tasviriy vositalardan keng foydalanganini ko’rishimiz mumkin. Chunki yozuvchi asarlari doim qisqa, ammo, mazmundor holatda yoziladi. Buning asosiy sabablaridan biri adibning til imkoniyatlari kengligi va badiiy tasvir vositalarini o’z o’rnida ishlata olishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi: 2 tomlik. -1-t.-T.,2000
2. Tamashevskiy B.V. Stilistika. -L.,1983
3. Fitrat. Adabiyot qoidalari. T.,1995
4. <https://n.ziyouz.com>